

# Tasviriy san'at darslarda o'quvchilarga o'zbek xalq ertaklari asosida illyustratsiya chizishni o'rgatish metodikasi

Jamoliddin Yuldoshevich Raxmatov

rakhmatovjaloliddin@gmail.com

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinf tasviriy san'at fani dekorativ kompozitsiya darslarida o'zbek xalq ertaklari syujetli asosida illyustratsiya chizish metodikasi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** estetika, miniatyura, dekorativ, kompozitsiya, illyustratsiya

## Methodology for teaching students to draw illustrations based on uzbekistan folk tales in fine art lessons

Jamoliddin Yuldoshevich Raxmatov

rakhmatovjaloliddin@gmail.com

Samarkand State University named after Sharof Rashidov

**Abstract:** This article describes art classes of the primary classes of the general secondary school in the decorative composer's work on the illustrative method of painting based on Uzbek folklore.

**Keywords:** aesthetics, miniature, decorative, composition, illustration

Ko'p asrlardan buyon rivojlanib kelgan Sharq miniatyura sa'ati jahon san'ati tarixida muhim o'rin tutadi. Hozirgi davrda O'zbekiston rassomlari va xalq ustalari tomonidan ko'plab miniatyura asarlar yaratildi. Ular ijodiy xayolot boyligi va mukammal yaratilganligi bilan o'zbek xalqining ko'hna tarixidan, badiiy madaniyatining serqirra va o'ziga xosligidan dalolat beradi.

Miniatyura asarlaridagi o'ziga xos go'zallik va insonparvarlik g'oyalari bolalarni ezgulikka undash, ularning badiiy estetik dunyoqarashlarini boyitish manbai hisoblanadi. Mo'jaz rangtasvir asarlarida chinakam xalqchilik g'oyalari, qadimiylik va mahalliylik ko'rinishlari o'z aksini topgan.

O'zbek rassomlari yaratgan miniatyura asarlarida maishiy hayot, turli lavhalar, doimiy harakatdagi mavjudotlarning tasvirini ifoda etuvchi kompozitsiyalar o'z ifodasini topgan. Rassomlar yaratgan asarlarda uzoq o'tmishning, asl mohiyati, o'ziga xos aniq yaratilgan shakllarda yorqin va sof ranglar, uyg'unligi bilan juda nozik, nafis chiziqlarda qunt va yuksak mahorat bilan ochib berilgan. Bu maktab

yoshidagi o'quvchilarga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Musavvirlarning tasvirlarni yorqin bo'yoqlar, naqshli bezaklar bilan, takrorlanmas, obrazli ko'rinishda ifodalashi, tarixiyliigi jihatdan o'quvchilarning estetik tasavvurlariga, badiiy tafakkurida yangicha dunyoqarashning shakllanishi va rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Umumiy o'rta talim maktabi boshlang'ich sinflarining tasviriy san'at darslarda o'quvchilarga o'zbek xalq ertaklari asosida illyustratsiya chizishni o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ilyustratsiya-lotincha ko'rgazmali tasvirlash, yoritish ma'nosini anglatadi. Boshlang'ich sinflarining tasviriy san'at mashg'ulotlarda yani dikorativ kompozitsiy jarayonida naqsh ishlash, ertak va hikoya asosida illyustratsiya ishlash nazarda tutiladi.

Dekorativ kompozitsiy mashg'ulotlari jarayonida illyustrativ rasm ishlashga alohida etibor berilib, ular ertak, rivoyat, hikoya, masal, she'r kabi badiiy asarlar asosida amalga oshiriladi. Bu mashg'ulotlarning samaradorli bo'lishi kop jihatdan uni to'g'ri tashkil etishga bog'liqir. Buning uchun avvalo o'qituvchi qiziqarli, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan ertak, rivoyat, hikoya, masal yoki she'rni tanlashi lozim. Ilyustrativ rasm ishlash mashg'ulotlari odam, qush va hayvon va boshqa murakkab sahkldagi narsalarni tasvirlash bilan bog'liqidir. Bu o'z o'rnida o'quvchilar uchun tasvirlash jarayonida ma'lum bir qiyinchiliklarni tug'diradi. Shuni hisobga olib, odam, qush va hayvonlarning tasvirlarini yoki ertakka ishlangan illyustratsiyalarni namoyish etish kerak bo'ladi. Masalan „Ur, to'qmoq“ nomli o'zbek xalq ertagi syujetlari asosida illyustratsiya ishlash tanlangan bo'lsa, ertak mazmunini to'liq o'quvchilar ongiga yetkazish uchun undagi eng qiziqarli syujetlarni topish, ertak bilan bog'liq bir nechta illyustratsiyalarni o'quvchilarga namoish etish kerak.

Bunda jarayonda namoyish etilayotgan illyustratsiyalarni g'oya, mazmun, kompozitsiya, rang jihatdan ham to'la tahlil qilish kerak bo'ladi. (1-rasm).




1-rasm. "Ur, to'qmoq" ertagiga ishlangan illustratsiya

Illyustrativ rasm ishlash jarayonida o'qituvchi o'z e'tiborini o'quvchilar rasmlarini ijodiy xarakterda bo'lishiga, ertakdagi personajlarni obrazli, o'zlariga o'xshash xarakterli holatda tasvirlanishiga, ularni va tevarak-atrofadagi boshqa tasviriy detallarni o'zaro aloqadorlikda tasvirlashlariga qaratishi lozim. Masalan, „Ur, to'qmoq“ ertagidagi „Qayna, xumcha“ syujeti uchun illustratsiya ishlashda dastlab illustratsiya qalamtasvirda bajariladi. (2-rasm). Ertak syujeti dastlab rassom - o'qituvchi ongi va tasavvurida paydo bo'lgan g'oya qoralamasi qalamda qog'oz yoki karton yuzasiga chiziladigan detallar o'rni belgilab olinadi. Shundan so'ng tasvir va undagi detallar chiziqli rasm holatiga keltiriladi. Imkoni boricha asosiy obraz va personajlarni kattaroq tasvirlash, uzoqdagilarini esa kichkroq qilib tasvirlash kerakligini o'quvchilar tushuntirish va uni o'z rasmlarida tadbiq qilishlariga yordam berish muhim hisoblanadi. Illyustratsiya qalamtasvirda chizilgandan so'ng rangli qalamlar yoki akvarel bo'yog'ida ranglanadi.

Syujet rangtasvirning ifodaviy vositalari, kopmozitsiyasi, rang orqali amalga oshiriladi. (3-rasm). Ertak illyustratsiyasining syujeti qog'oz format yuzasida rangli qalamlar yoki akvarel bo'yoqlari yordamida bajariladi. Ertak syujetlari asosida illyustratsiya ishlashda voqeylikni badiiy tasvirlash va talqin qilish rangtasvir bajarish jarayonida namoyon bo'ladi. U muhim ijtimoiy mazmun va rangbarang g'oyaviy vazifalardan bajarishni talab etadi. Rang berishda birinchi navbatda suyultirilgan yorqin ranglar bilan boshlab, ko'p qatlamli yoki rangni bir quyishda bir qatlamni dekorativ tusli bajarish ham mumkin.



2-rasm. „Qayna, xumcha“ syujeti uchun ishlangan illustratsiya qalamtasviri



3-rasm. „Qayna, xumcha“ syujeti uchun ishlangan illustratsiya rangtasviri

O'quvchilar rang orqali ertak syujetlarini ko'rinarli shakllarda tasvirleydilar.

Ertakdagi obraz va voqialarga mos ranglar tanlash, rasmda bosqichli ishlash va plandagi detallarni etibordan qochirmasliklari lozim. Illyustrativ rasm ishlash jarayonida o'qituvchi tomonidan o'quvchilarga makonning cheksizligi, undagi

narsalarning rang-barangligi, moddiyligi, hajmi va fakturasi ham tushuntirilib borilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda tasviriy san`at darslarda o`quvchilarga o`zbek xalq ertaklari asosida illyustratsiya chizishni o`rgatishning tarbiyaviy ahamiyati muhim bo`lib, o`quvchilar tasviriy faoliyatida badiiy va tasviriy savodxonligini yanada to`laqonli bo`lishiga amaliy yordam beradi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. R.Hasanov. Maktabda tasviriy san`at o`qitish metodikasi. Fan. T.2004.
2. R.Hasanov. O`.Nurtoyev.Tasviriy san`at o`qitish metodikasi. Nizomiy nomidagi TDPU. T.2004.
3. R.Hasanov.Tasviriy san`at asoslari. G`.Gulom nashriyoti. T. 2009.
4. S.Abdirasilov, N.Tolipov, N. Oripova. Rangtasvir. T.O`zbekiston. 2006.
5. A. Muhammadjonov. Buyuk ipak yo`li ertaklari. Art flex. T. 2012.